

**TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA
MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING HAMKORLIKDAGI
VAZIFALARI**

Uroqova Sokina Xudoyshukur qizi

Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 15-maktab amaliyotchi psixologi

Xoliyorov O'tkir Ibrohimovich

Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 11-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Bolaning ulg'ayishi va shaxs bolib shakllanishining asosiy davrida unga hamroh bo'lgan o'qituvchilar ham o'zlarining kasbiy faolyatida ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa bolaning pedagogik e'tiborsizligiga, deviant xulq-atvoriga, turli xil jtimoiy og'ishlarga olib keladi.

KIRISH

Asotsial xulq-atvor esa mikromuhitning salbiy ta'sir ko'rsatishi, oiladagi mavjud nonormal o'zaro munosabatlar, oila va maktabda beriladigan tarbiyada yo'l qo'yiladigan kamchiliklar va hokazolar tufayli ro'y beradi. Bunday xulq-atvorli bolalar jamiyatimizda ba'zan uchrab turadigan balog'atga yetmagan tartibbuzar bolalar turini tashkil qiladi.

Tarbiyasi og'ir bolalar – bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z holicha tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondosha bilmaslik oqibatida paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, normal ta'lim va tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnatolmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning to'g'ri yo'llarini topa bilmagan bolalar – tarbiyasi og'ir bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'siri o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin.

Tarbiyasi og'ir bolalardagi ayrim kamchiliklar va nuqsonlar, chunonchi: qaysarlik, o'jarlik, qo'pollik singari salbiy ko'rinishlar maktabga kelmasdanoq boshlanishi mumkin. Bu, albatta, oila tarbiyasi yoki bog'cha-yasli, maktab, ish faoliyati bilan bog'liqdir.

Olimlarning kuzatishicha, kichik yoshdagi bolalarning o'ndan to'qqiz qismi oila sharoitida tarbiyalanadi. Bunday oilalarda ota-onalar farzandlariga yetarli darajada e'tibor bermaydilar yoki ularni erka qilib o'stiradilar. Onalar esa bolalarining yomon xulq-atvorini, xatti-harakatlarini otalaridan yashiradilar. Oqibatda bunday oiladagi bolalar ko'zbo'yamachi, xudbin, faqat o'z foydasini ko'zlaydigan, kaltafahm, bachkana, qo'rs, birovga ozor beradigan bo'lib o'sadilar.

Ba'zi ota-onalar farzandi ust-boshining but bo'lishini o'ylaydilar-u, ularning ichki dunyosi, ma'naviy ehtiyojlari haqida qiziqmaydilar. Tarbiyaga nisbatan bunday munosabat tarbiyasi og'ir bolalarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Bolangizni fe'l — atvoriga tug'ilganidan e'tibor bering. Xalqimiz xotin boshidan, bola yoshidan deb bejiz aytmagan. Onalar bir yoshgacha bolaga juda e'tiborli bo'lishadi. Chaqaloq gapirmasada ona uning hatti — harakatidan darhol gap nimadaligini angelaydi. Holatidan tagligini almashtirish yoki emizish vaqti kelganligini yoki nimadir bezovta qilayotganligini darhol tushunadi. Bu hammasi sinchkovlik tufayli. Bola o'zligini anglaguncha ana shunday e'tibor kerak. Go'dakligida qanday avaylagan bo'lsangiz ana shunday avaylab, kayfiyatini anglab turish lozim. O'smirlik davriga juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturi va boshqa ishlar bilan bog'liq turli masalalarni yechishda o'smirlarning intellektual rivojlanib borishi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar ustida fikrlashga undaydi. Ammo o'smirlar bu masalada mustaqil fikrlashni ma'qul ko'radilar.

Boshqa tomondan esa ular bilan muammolarni muhokama qilganda, ayniqsa, kasb tanlash, xulq-atvor etikasi, o'z majburiyatlariga mas'ullik kabi masalalarda, infantillikni (yosh bolarlarga xos jismoniy va psixologik holat) kuzatish mumkin.

5-6-sinf o'quvchilarida sinfdagi o'zi egallab turgan mavqeyiga katta e'tibor berish xususiyati xos. 6-sinfdan boshlab o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek, qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga qiziqish yuzaga keladi.

8-sinf o'quvchilari mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy hislatlarga alohida e'tibor berishadi.

Ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga suyanib o'smirlar o'zlarida kuchli iroda va shunga o'xshash boshqa foydali sifatlarni faol rivojlantiradilar. O'rta maktabda o'smirlarga turli fanlarni boshqa-boshqa o'qituvchilar o'qitishadi. Shu paytda o'smirlarda kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning yangi mezonlari ham shakllana boshlaydi. O'smirlar asosan bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan va o'quvchilarni ajratmaydigan o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'zlarining o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

Maktablarda bolalarga nisbatan ba'zan "tarbiyasi qiyin bola" jumlasini ishlatiladi. Tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko'p holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash kuzatiladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi qiyin bolalarda tarbiya jarayonida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishi oqibatida o'qishga nisbatan qiziqish pasayib boradi.

Shu bois pedagoglar bu davrda bolalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb etishda ularning qiziqishlarini ham inobatga olishlari lozim, dars jarayonlarini samarali va qiziqarli o'tish orqali "tarbiyasi og'ir" o'quvchilarni ta'limga jalb etish zarur. Bu o'rinda ayniqsa darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni turli to'garak yoki sport seksiyalariga jalb etish orqali ham ularda ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish mumkin.

Tarbiyasi og'ir bolalar va ular bilan ishlash har doim psixologlarning diqqat markazida bo'lgan. Nima qilish kerak, ta'limga mos kelmaydigan, tajovuzkorlik,

hissiy beqarorlik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, o'rganishni istamaslik, o'rganishga qiziqish yo'qligi, maktab motivatsiyasi past bo'lgan bolalar bilan qanday ishlash kerak? Psixologning qiyinchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va ushbu guruh bolalariga psixologik yordam ko'rsatishdagi roli zamonaviy dunyoda juda dolzarb va muhimdir. Maktab psixologlari oldida turgan vazifalar maktabda o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishdir.

Maktab psixologi ko'pincha boshqa bolalardan sezilarli darajada farq qiladigan (minus belgisi bilan) bolalar bilan shug'ullanishi kerak. Psixologga u yoki bu tarbiyasi og'ir bolaga "qandaydir tarzda ta'sir qilish" haqidagi so'rov o'qituvchilar va ota-onalarning tez-tez so'rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o'quvchilari tarbiyasi og'ir toifasiga kiradi: o'qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyada ro'yxatga olingan o'spirinlar, disfunktsiyali va yolg'iz bolalar deb ataladigan bolalar.

Psixologiyada tarbiya atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida uni psixologik fanning predmeti deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Tarbiyaning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda tarbiya "tirik mavjudotga xos bolgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan ozaro ta'sirdir. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. Bolaning tarbiyasi tug'ilishdan boshlanadi. Uning birinchi o'qituvchilari ota-onalar, keyin bolalar bog'chasi tarbiyachilari va shundan keyingina-maktab o'qituvchilari. Afsuski, ular ham alohida, ham jamoaviy ravishda ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi. Uning rivojlanishida bola bir joyda turmaydi, u oldinga siljiydi. Ota-onasidan bola oddiy taqlid orqali buni qanday qilishni organadi, nima mumkin va nima mumkin emas.

Bolaligida o'z farzandiga yomon o'rnak bo'lgan ota-onalar voyaga yetganda ularning tarbiyasida yuzaga keladigan muammolardan xoli emaslar. Tarbiyasi og'ir bolalar - bu rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan, xususan, axloqiy va deviant xulq-atvori, qat'iy salbiy xatti-harakatlari bo'lgan bolalar. Tarbiyasi og'ir - bu bola, maktab o'quvchisi bo'lib, u alohida davolashni, o'qituvchi va tengdoshlar guruhining diqqatini talab qiladi, bu individual yondashuvni talab qiladi. Ko'pgina taniqli o'qituvchilar va psixologlarning xulosalari, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning kelib chiqishi maktab yoshdagi bolalarda kuzatiladigan xatti-harakatlar, o'yinlar, organish yoki boshqa faoliyatdagi normadan chetga chiqishdir. Deviant xulq-atvorning rivojlanishining boshlanishi odatda bolaning ozini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy me'yorlar va qoidalarni qabul qilish yoki rad etish boshlanishiga to'g'ri keladi. Bunday xulq-atvor ko'nikmalari, tegishli faoliyat talablariga bo'ysunish qobiliyati singdirilmagan bola, oxir-oqibat, har xil xatti-harakatlarning buzilishiga moyil bo'lgan intizomsiz shaxsga aylanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bir guruh tarbiyasi og'ir bolalarni ajratib ko'rsatib, psixologlar ular bilan ishlashni tashkil etishga harakat qilishlari, jumladan: ota-onalar uchun seminarlar o'tkazish, ularning sabablari tahlil qilish, tarbiyasi og'ir bolalarni tuzatish yo'llari muhokama qilish, ota-onalardagi tanglikni bartaraf etishga qaratilgan maslahat ishlari, ota-onalar bilan individual ishlash. Shuningdek, psixolog va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadigan psixologik treninglar va meditatsiya mashqlaridan foydalanish, adekvat muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganishga qiziqishning namoyon bo'lishiga, maktab motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi bo'yicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatlar»-

2. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
3. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
4. Раттер М. Помощь трудным детям. - М., 2004.
5. Рожков М. И. Воспитание трудного ребенка. Дети с девиантным поведением. Учебно-методическое пособие. М., ВЛАДОС, 2003.
6. Internet ma'lumotlari